



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

IV SHO'BA. FOLKLORSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

O'ZBEK XALQ DOSTON VA ERTAKLARIDA KIIYIK KULTIGA OID QARASHLARNING BADIY TALQINI XUSUSIDA

O'rayeva Darmon Saidaxmedovna,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq doston va ertaklarida kiyik kultiga oid mifologik qarashlar, xalq e'tiqodiy tushunchalarining badiiy, etnofolkloristik talqini xususida so'z yuritilgan. Shunga ko'ra, doston va ertaklarda kiyik obrazi va u bilan bog'liq an'anaviy motivlarning poetik talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar: doston, ertak, kiyik, obraz, motiv, badiiy talqin, kult, Ergash Jumanbulbul o'g'li.

Аннотация: В статье рассматриваются мифологические представления о культе оленя в узбекских народных эпосах и сказках, а также художественная и этнофольклорная интерпретация народных верований. Соответственно, в дастанах и сказках особое внимание уделяется поэтической интерпретации образа оленя и связанных с ним традиционных мотивов.

Ключевые слова: эпос, сказка, олень, образ, мотив, художественная интерпретация, культ, Эргаш сын Джуманбюльбуля.

Abstract: The article examines mythological ideas about the cult of deer in Uzbek folk epics and fairy tales, as well as artistic and ethno-folklore interpretation of folk beliefs. Accordingly, in dastans and fairy tales, special attention is paid to the poetic interpretation of the image of the deer and traditional motifs associated with it.

Key words: epic, fairy tale, deer, image, motif, artistic interpretation, cult, Ergash son of Jumanbulbul.

O'zbek mifologiyasida kiyik (ohu) kultiga ishonch alohida o'ringa ega. Shu asosda ertak va dostonlarimizda kiyik obrazi orqali xalqimizning juda qadimdan shakllangan totemistik qarashlari, kiyik kultiga daxldor asotiriy tushunchalari aks ettirilgan. Kiyik epik ijodda eng ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biridir. U bilan bog'liq epik motivlar ham anchagina. Shular orasida eng keng tarqalgani kundoshlar g'ayrligi tufayli cho'lu biyobonga tashlab ketilgan norasida go'daklarni ona kiyikning emizib, parvarish qilishi motivi bo'lib, uning bevosita kiyik kultiga ishonch zahirida shakllangani anglashilib turadi.

Umuman olganda, o'zbek xalq ertak va dostonlarida epik qahramonni kiyik emizib voyaga yetkazishi yoki homilador kiyik o'zini otmoqchi bo'lgan insondan najot tilashi va qutulib qolishi, shundan so'ng o'sha inson uzoq kutilgan farzandga ega bo'lishi kabi 182otemi stik motivlar mavjudki, bularning ildizlari qadimgi totemistik miflarga borib taqaladi. Masalan, "Sohibqiron" dostonida toqqa tashlab ketilgan go'dak egizaklar uloqchalarini mergan otib o'ldirgan bir ona kiyikning sutini emib ulg'ayadi. Bu bilan ularning muayyan magik xususiyat kasb etishi va jonivor ko'rinishida namoyon bo'lgan homiy kuchlar himoyasiga olinganligi ko'rinadi. Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan "Qironxon" dostonida ham cho'lga tashlangan go'daklarni kiyik emizib katta qiladi.

O'zbek xalqining "Vospiroxun" nomli ertagida Xizrning qarshisidan bir xafa kiyik chiqib qoladi va o'zidan ahvol so'ragan Xizrga tog'da yotgan ikki bolasiga sira sut yetkiza olmayotganini, bolalarim ochligini, suti kamligini aytib zorlanadi. Xizr esa kiyikka ko'rinish turgan temir qo'rg'onga borib, u yerda yotgan ikkita inson bolasni o'z bolalariga qo'shib emizsa, sutiga sut qo'shilishini aytadi. Shundan so'ng kiyik Xizr aytgan joyga borib, bolalarni tarbiyalaydi, bolalar ham katta bo'lishaveradi. O'g'ilning ismi Sohibqurol, qizning ismi Sohibjamol bo'ladi. Bular katta bo'lgach, kiyik o'z bolalarini olib tog'ga ketadi.

“Guliqahqah” ertagida ham inson bolasini kiyik emizib katta qilishi motivi keltirilgan. Unda cho’lu biyobonga tashlangan bolani bir kiyik kelib to’rt yoshgacha emizib, keyin kiyik “Meni otib o’ldirib qo’ymasin”, deb qochib ketishi tasvirlangan.

Go’dakni kiyikning emishi motivi “Rustam” ertagida ham uchraydi. Unda hikoya qilinishicha, yosh go’dak-chaqaloqning kimsasiz changalzorda yig’lashi shu atrofda o’tlab yurgan yosh ona kiyikka eshutilibdi. Kiyik kelib chaqaloqni o’z bag’riga bosibdi, uni ertalabgacha emizibdi. Bu bola Zol ekan. Qarasalarki, malikaning yonida bola yo’q emish, bolani bir changalzorda kiyik emizib yotgan emish. Semurg’ tezda to’qayga yetib kelib, bolani topibdi. Uyiga olib kelib, kiyik va echki suti bilan boqib, Zolni katta qilibdi.

Yana shu ertakda kiyik suti bilan davolash motivi keltirilgan. Aytilishicha, Semurg’ boshliq qirq hukamo Malikaning ro’dasini kiyik suti bilan yuvib tikib qo’yishadi.

Ertak davomida bayon qilinishicha, Rustam ov qilib yurib, daryoyi Nildan o’tib, Changali Mozandaronga kirganda ro’parasidan bir kiyik chiqib qoladi. Ammo Rustam unga qarata otgan o’q kiyikka tegmabdi. Rustam achchig’idan kiyikni quvib, qaytara olmay, adashib, boshqa diyorga o’tib, bir to’qayga kirib ketibdi.

Kiyikni ovlash, ammo bu jarayonda unga qarata otilgan o’qning jonzotga tegmasligi natijasida epik qahramon uni quvlashda davom etib, yo’ldan adashishi yoki biror-bir kutilmagan vaziyatga duch kelishi motivi an’anaviylikka ega. Bu motivga “Ziyod botir” ertagida ham duch kelish mumkin. Unda Ziyod botirning malika Qamarxon bilan tanishuviga kiyik ovi vosita bo’lishi tasvirlangan. Jumladan, Qamarxon bir kiyikning o’tlab yurganini ko’radi. Kiyikning qulog’iga tilla halqa osilgan, shoxiga tilladan muhr bosilgan, bo’yniga har xil asl toshlar taqilgan ekan. Qamarxon kiyikni yaxshi ko’rib qolibdi. Atrofida xizmatiga shay turgan qizlarga shu kiyikni o’rab olib, tiriklay tutishni, kiyikni hech kim qochirmasligini, agar kimki uni qochirsa, yuziga qora surtib, ovdan haydalisini ta’kidlabdi. Qizlar Qamarxonning aytganini qilib, qo’llariga kamand olib, kiyikning atrofini o’rabdilar. Humoyun o’rtaga tushib, kiyikka kamand tashlabdi. Kiyik chap berib, malikaning yonboshidan o’tib ketibdi. Malika ketma-ket uch marta kamand tashlabdi, ammo kiyikni ilintira olmabdi. Qizlardan uyalib, achchig’i kelib, kiyikning orqasidan quva ketibdi. Kiyik ham otgan o’qday vizillab, uchar qushday pirillab keta beribdi. Malikaning mingan oti uchqur otlardan bo’lsa ham, kiyikka yetolmabdi, lekin kiyikning ketidan qolmabdi. Kiyik ham, ot ham nihoyatda charchabdi. Kiyik to’ppa-to’g’ri bir g’orga kirib ketibdi. “Ha, seni endi tutdim”, deb malika sevinib, g’orga kirib qarasa, g’or teshik ekan, kiyik undan chiqib ketibdi. Qiz yana otga minib, kiyikning orqasidan qorama-qora quvib ketaveribdi. Kiyik tog’ yoqalab ketayotgan paytda Ziyod botirga duch kelib qolibdi. Ziyod botir shu tog’da yilqilarini o’tlatib yurgan ekan. Palaxmonga tosh solib, kiyikning shoxini mo’ljallab uribdi. Tosh kiyikning bir shoxini uchirib yuboribdi. Jonivor kiyik til tortmay o’libdi. Ketma-ket malika ham quvib kelibdi, qarasa, kiyik o’lib yotibdi. Bundan g’azabl原因 Qamarxon qilichini qinidan sug’urib, cho’pon Ziyod botirga po’pisa qilibdi. U kiyikni tiriklayin tutmoq maqsadida bo’lganini aytibdi.

Kiyik ovi motivi “Ozodachehra” ertagida qahramonning qirq kanizi bilan ovga chiqib, necha turli qushlarni ov qilib yurganida, qirning orqasidan bir kiyik yugurib chiqishi, u qo’lidagi qarchig’ayni kiyikka solib, uni ovlashi xususida so’z boradi.

“Yoriltosh”, “Op-singil”, “Opa-uka” kabi ertaklarda kiyik suvini ichib, kiyikka evrilish motivi keltirilgan. Unda opasining “Ichma, bu kiyikning ichadigan suvi” deb ogohlantirishiga qaramay, undan ichgan singil yoki uka kiyikka aylanib qoladi. Opasining kundoshi o’zining boshi qorong’iligini yolg’ondan ro’kach qilib, “kiyik bola”ni so’ydirib yemoqchi bo’ladi. Shunda navkarlar mis qozonlarni osib, oshpichoqlarni qayrab turganlarida, birdan kiyik hovuz atrofida aylanib, tilga kelib, opasidan yordam so’raydi. Sir ochilib, opasi ham hovuzdan bolalari bilan chiqarib olinadi. Kiyik bo’lib qolgan bolani esa hakimlarga ko’rsatib, davolatadilar.

“Orzijon va Qambarjon” ertagida kiyikni yoriga sovg’a qilib olib kelish motivi qo’llanilgan. Unda oshiq Qambarjon “oldin kiyik olib kelay, so’ngra yorim bilan ko’rishaman”

deb tog'ga chiqib ketadi. Orzijon esa "Men kiyikka zormidim?!" deb, Qambarjonning orqasidan bu g'azalni o'qib qoladi:

Ovginang ov bo'lmasin-ay, yigit-ay,
Dovginang dov bo'lmasin-ay, yigit-ay.
Bir kiyikni quvlab-ay, yigit-ay,
Sinib kelsin qo'lginang-ay, yigit-ay, –

deb, yorini duoyibad qilib yuboradi. Shahzoda kiyikni ushlab olaman deb, cho'qqiga chiqib ketadi. Kiyik buni ko'rib qochadi, u kiyikni quvlaydi. Shunda bir toshning tepasidan sirg'alib yiqilib, o'ng qo'lining bilagi sinib, pacha-pacha bo'lib, ko'ngli ketib qoladi.

Bu motiv asosida odamlar kiyik oviga ehtiyotkorona munosabatda bo'lgani anglashiladi. Mazkur dostonida kiyikning rangiga ham e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Masalan: "Shu paytda bir ola kiyik paydo bo'ldi. Qambarjon uni quvdi. Kiyik Qambarjonni ergashtirib, bu tog'ning o'ngidan chiqarib yubordi-da, birdan g'oyib bo'lib ketdi".

Ertakda Qambarjonning kiyik otib, go'shtini o't topsa, pishirib yeb, o't topmasa, xomligicha yeb, keta berishi misolida kiyikning oziq-ovqat ma'nosidagi talqiniga ham duch kelinadi.

Yana bu dostonida shifobaxsh kiyik o'ti nomi tilga olingan: "Qambarjonning cho'ntagida kiyikning o'ti bor edi. Onasining ko'ziga surtgan edi, uning ikkala ko'zi yarqirab ochildi".

Bular orqali kiyikning suv, serhosillik, qut-baraka g'oyasini aks ettiruvchi jonzot sifatida talqin qilingani ham ko'rinadi. Shuning uchun tabiatdan mo'l hosil tilash maqsadida o'tkazilgan qadimgi marosimlarda kiyik timsolidan foydalanilgan. O'zbekistondagi Zarautkamar, Sarmishsoy, Saymalitosh qoyatoshlarida kiyik, ohu kabi jonivorlarning surati chizilgan lavhalar uchraydi.

Kiyik yoki ohu astral-kosmik inonchlarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

"Yaltillama sopol tovoq" ertagida kiyikning tutqich bermas, o'ta chopag'on jonivor ekaniga e'tibor qaratilgan. Buni shu ertakdan olingan "Ikkita kiyikni bir amallab tutib kel" parchasi dalillay oladi. Shunday qilib, qahramon kiyiklarni tutib, so'yib, tulum qilib, bitta tulumiga go'sht, bitta tulumiga suv g'amlab" oladi. Bu ma'lumot esa ajdodlarimizning kiyik tulumidan oziq-ovqatni sifatli saqlash vositasi sifatida foydalanilganidan darak beradi.

Kiyikni quvib, yangi manzilga borib qolish motivi "O'tinchi chol" ertagida ham mavjud. Unda qahramon uch kecha-yu uch kunduz yurib, oxirida tog' orasidan chiqib, cho'l tomonga qochgan bir kiyikning orqasidan quvlab, u ham cho'lga chiqib qoladi, ammo kiyikni topa olmay, yolg'iz o'zi cho'lma-cho'l, ko'lma-ko'l, yetti kecha-yu yetti kunduz yo'l yurib, bir daryoning bo'yiga yetadi.

Kuzatishlarimiz davomida kiyik obrazining nafaqat sehrli va maishiy ertaklar syujetida qo'llanishi, hayvonlar haqidagi ertaklarda ham keltirilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, "Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagida bir kiyikning qarg'a, sichqon va toshbaqaning totuv bo'lib yurishganini ko'rib, ular bilan do'stlashmoqchi bo'lishi va bunga erishishi haqida hikoya qilinadi. Xuddi shunday motiv sichqon, qarg'a, qurbaqa va kiyik do'stligi aks ettirilgan "To'rt jins do'st" nomli ertakning ham asosini tashkil qilgan.

O'zbek folklorida "Kiyiknoma" nomli doston ham bor. Uning uchta varianti yozib olingan. Islom davrida yaratilgan "Kiyiknoma"da kiyik mehribon ona, zorlangan ohu (ohu zor) qiyofasida, bir kofir insonning musulmon bo'lishiga sababchi jonzot sifatida tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, kiyik kultiga ishonch turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lgan. Unga kult sifatida munosabatda bo'lish ancha qadimiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari va spetsifikasi: Filol. fanlari nomz... diss. – Toshkent, 1999. – 168 b.
2. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 б.
3. Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. Тадқиқотлар. 2-китоб. – Т.: Фан, 1971.
4. O'zbek xalq ertaklari. I-III tom. – Toshkent: Sharq, 2007. – 383 b.

6. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 291-298.
7. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(5), 237-242.
8. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.
9. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 186-192.
10. Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 231-235.
11. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of "Life Tree" In Legends and Narrations. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(6), 51-55.
12. OBRAZINING, Q. (2020). O'ZIGA XOS TALQINLARI. *НамДУ илмий ахборотномаси*, 1, 5-311.
13. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 6342-6349.
14. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗНИНГ БАДИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In *Научно-практическая конференция* (Vol. 1, pp. 287-291).